

“TASDIQLAYMAN”

Qibray tumani Kambag'allikni qisqartirish va

bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i



X.Avazmatov

**QIBRAY TUMANI KAMBAG' ALLIKNI QISQARTIRISH VA  
BANDLIKKA KO'MAKLASHISH BO'LIMIDA O'TKAZILGAN  
YIG'ILISH BAYONI**

Qibray tumani

17.03.2026-yil

Yig'ilish raisi:

Toshkent viloyati Kambag'allikni  
qisqartirish va bandlik boshqarmasi  
korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi  
boshlig'i M.Salimov

Ishtirok etdilar:

Qibray tumani Kambag'allikni qisqartirish  
va bandlikka ko'maklashish bo'limi  
hodimlari

**KUN TARTIBI:**

- 1. Qibray tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi hodimlari o'rtasida Manfaatlar to'qnashuviga barham berish, Davlat fuqarolik xizmati va korrupsiya holatlari va ularning oqibatlari.**

Toshkent viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i M.Salimov yig'ilishni kirish so'zi bilan ochib berib, kun tartibidagi masala yuzasidan o'z fikrini bildirar ekan u o'z so'zida, keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy -huquqiy islohatlar amalga oshirilayotganligini, bu borada, O'zbekiston Respublikasining

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni qabul qilinib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, mansabga sovuqqonlik bilan qarash, o'z vazifalariga loqaydlik yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo'lishi oqibatida ularni bajarmasligi yoki lozim darajada qasddan bajarmasligi, g'arazgo'ylik yoki boshqa manfaatlarni ko'zlab rasmiy hujjatlarga bila turib soxta ma'lumotlar va yozuvlar kiritishi, hujjatlarni qalbakilashtirishi yoki bila turib soxta hujjatlar tuzishi va taqdim etishi, pora olish, o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va o'tkazish Qonun oldida javobgarlikning muqarrarligi belgilab qo'yilganligini ta'kidlab o'tdi.

Bundan tashqari X.Avazmatov Qibray tumani “Fayzobod” MFY hokim yordamchisi Sh.Qo'chqorov tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatiga to'xtalib barcha bo'lim mutaxassislarini kelgusida bu kabi jinoyatlarni sodir etmasliklari yuzasidan qat'iy ogohlantirdi.

So'zga chiqqan yig'ilish ishtirokchilarining fikr mulohazalarini inobatga olib, yig'ilish

#### **QAROR QILADI:**

- 1.Kun tartibidagi masala yuzasidan bo'lim boshlig'i M.Salimovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilnsin.
- 2.Barcha bo'lim mutaxassislari;
  - o'zlarining funksional vazifalaridan tashqari boshqa vazifalarga aralashish, shuningdek xizmat vazifalariga sovuqqonlik bilan qarash va mansabni su'istemol qilmaslik;
  - har qanday korrupsiya holatlariga aralashmasliklari bo'yicha qat'iy ogohlantirilsin;
3. Bo'lim bosh mutaxassisi (D.Bekmuratov) 1 kun ichida barcha bo'lim mutaxassislaridan korrupsiyaga yo'l qo'ymasliklari bo'yicha kafolat xati olsin.
- 4.Ushbu yig'ilish ijrosini nazorat qilish bo'lim boshlig'i o'rinbosari M.Erkinjonov zimmasiga yuklatilsin.

**Bayonlashtirdi:**

**D.Sobirjonov**



